

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 9, ISSUE 3



# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№3 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2026-3>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**  
**Сеитов Азамат Пулатович**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**  
**Сабирова Умида Фархадовна**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурадов Мансур Бобомурадович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Каланов Комил Куллахматович**  
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Негматова Шахзода Шухратовна**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайылдаева Асель Кокоевна**  
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

**Исмаилов Алишер Агзамович**  
доктор экономических наук, (Узбекистан)  
**Щепилова Галина Германовна**  
доктор философских наук, профессор (Россия)  
**Рожанский Михаил Яковлевич**  
кандидат философских наук (Россия)  
**Маматов Нормурат**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Бурнашев Рустам Ренатович**  
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Холбеков Абдугани Жуманазарович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Акулич Мария Михайловна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

**Антонио Алонсо Марсос**  
доктор политических наук, профессор (Испания)  
**Фадеева Любовь Александровна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Виктор Агаджаньян**  
доктор философии по социологическим наукам,  
профессор (США)  
**Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**  
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)  
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Николов Стефан**  
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

**Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Ли Ци**  
доктор исторических наук, профессор (Китай)  
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz) решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

# ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Пармонов Фарход Ярашевич**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич**  
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)  
**Алимухамедова Нодира Ядгаровна**  
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

**Камалова Хатира Сабыровна**

кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Тагиева Гулсум Гафуровна**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Ахмедова Феруза Медетовна**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Аликариева Аълохон Нуриддиновна**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Зайтов Элёр Холмаматович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

**Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович**

доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Қаюмов Қахрамон Нозимжонович**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Махкамов Қодиржон Одилжонович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Сеитова Зухраhon Пиржановна**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Доспанова Дилара Уракбаевна**  
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна**  
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

**Каримов Бобир Шаропович**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Якубов Ильдар Харрасович**  
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)  
**Абдухалилов Абдулло Абдухамитович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

# МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Холбеков Абугани</b> ЛИТЕРАТУРНЫЙ МЕТОД КАК СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТРУМЕНТ В АНАЛИЗЕ ТОТАЛИТАРИЗМА (НА ПРИМЕРЕ РОМАНА «1984»).....	8
<b>2. Султанова Эътибор</b> МЕХАНИЗМЫ ПОЛИТИКИ ТОЛЕРАНТНОСТИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ.....	15
<b>3. Латипова Нодира</b> МЕСТО И РОЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ЭТИКИ В СОЦИАЛЬНОЙ РАБОТЕ.....	21
<b>4. G'afforova Mavlyuda</b> JAMIYAT HAYOTIDA XOTIN-QIZLARNING SOTSIOMADANIY QIYOFASI.....	29
<b>5. Tagiyeva Gulsum, Tursunboyev Jahongir</b> O'ZBEKISTONDA ISTIQBOLLI YOSH RAHBAR KADRLARNI TAYYORLASH TIZIMINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	38
<b>6. Xolbekov Abdugani, Axmedov Tuychi</b> IJTIMOIY XAVFLAR SHAROITIDA MAHALLANING ROLI VA ANAMIYATI.....	51
<b>7. Якубов Ильдар</b> КОНЦЕПЦИИ УПРАВЛЕНИЯ В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ РОЛИ ГОСУДАРСТВА: ПОЛИТИКО-СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД.....	57
<b>8. Хасанова Мавлюда, Низамов Шохрухжон</b> РОЛЬ ПАТРИОТИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ФИЛИАЛАХ РОССИЙСКИХ ВУЗОВ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	63
<b>9. Mannanova Nilufar</b> BUYUK BRITANIYA DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIDA KOMPETENSIYA MODELLARINING RIVOJLANISH AMALIYOTI.....	71
<b>10. Berdimuratova Alima, Baymurzaev Azamat, Berdimuratov Nauriz</b> JAMIYATDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING ROLI.....	78
<b>11. Radjabova Aziza</b> XALQARO MUNOSABATLAR VA JAHON SIYOSATIDA GENDER FENOMENI: FEMINISTIK NAZARIYANING KONSEPTUAL YONDASHUVLARI.....	87
<b>12. Ixtiyarov Farxod</b> RAQAMLI TENGSIZLIKNI INKLYUZIV YONDASHUV ASOSIDA BARTARAF ETISH IMKONIYATLARI.....	93
<b>13. Ergasheva Mehribon</b> “GENDER MADANIYATI” TUSHUNCHASI: MOHIYATI VA ASOSIY JIHLATLARI.....	100
<b>14. Mengliyev Atabek</b> REPRODUKTIV SALOMATLIKNI BELGILOVCHI IJTIMOYIY DETEMINANTLAR: SOTSIOLOGIK TAHLIL.....	107

<b>15. Джураева Анна, Сеитов Азамат</b> СОЦИАЛЬНАЯ ЦЕНА УСТОЙЧИВОСТИ: УРОКИ КРИЗИСА 2008 ГОДА И РИСКИ “ГОЛЛАНДСКОЙ БОЛЕЗНИ” ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА.....	118
<b>16. Mo‘minov Zokirjon</b> TASHQI MIGRATSIYA JARAYONLARINI YUQUMLI FUNKSIYALARI: IJTIMOIIY- STRAUKTURAVIY TAHLIL.....	125
<b>17. Husenov Sirojiddin</b> “HAR BIR OILA TADBIRKOR” HARAКATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	132
<b>18. Kalanova Sabohat, Saidov Ulug‘bek</b> RAQAMLI JAMIYATDA AVLODLAR ALMASHINUVI JARAYONLARINING DIFFERENSIATSIYASI.....	140
<b>19. Toshbo‘riyeva Sevara</b> TA‘LIM VA OILAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASHNING YOSH AYOLLAR IJTIMOIIY MOBILLIGIGA TA‘SIRI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA).....	150
<b>20. Mannanov Erkin</b> ETNOTURIZMNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARIGA BIR NAZAR.....	157
<b>21. Артыкова Алёна</b> ОРИЕНТАЦИЯ НА ЧЕЛОВЕКА: НОВЫЙ ВЕКТОР РАЗВИТИЯ МАХАЛЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	164
<b>22. Zaitova Sitara</b> O‘ZBEKISTONDA KAM TA‘MINLANGAN OILALARNI MANZILLI QO‘LLAB- QUVVATLASH MEХANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	177
<b>23. Raximjonova Gulzira</b> DAVLAT BOSHQARUVI SHAFFOFLIGINI TA‘MINLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATINING O‘RNI: STATISTIK VA METODOLOGIK TAHLIL.....	186
<b>24. Ro‘yiddinova Aisha</b> O‘ZBEKISTONDA ISHONCHLI AXBOROT MUHITINING HOLATI VA UNING XALQARO KO‘RSATKICHLARDAGI O‘RNI.....	196
<b>25. Xaydarova Javohira</b> RAHBAR AYOLLARNING BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MEХANIZMLARI.....	203

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

## ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES


**Ro'yiddinova Aisha,**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi

Davlat siyosati va boshqaruv akademiyasi

tayanch doktoranti

### O'ZBEKISTONDA ISHONCHLI AXBOROT MUHITINING HOLATI VA UNING XALQARO KO'RSATKICHLARDAGI O'RNI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21111907>

#### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'zbekistonda axborot makonining kengayishi, ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar rivojlanishining jamoatchilik fikrini shakllantirish hamda ishonchli axborot muhitini yaratishga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot davomida Agenda-setting nazariyasi va media pluralizm konsepsiyasi asosida OAVning jamiyatdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, O'zbekistonning media erkinligi va axborot muhiti holati RSF hamda Freedom House xalqaro reytinglari misolida qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, axborot manbalari sonining ortishi bilan birga axborot ishonchligi, media savodxonlik va dezinformatsiyaga qarshi kurash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

**Kalit so'zlar:** axborot muhiti, ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik fikri, media savodxonlik, media pluralizmi, Agenda-setting, axborot ishonchligi, dezinformatsiya.

**Руйиддинова Аиша,**

базовый докторант Академии

государственной политики

и управления при Президенте Республики Узбекистан

### СОСТОЯНИЕ ДОСТОВЕРНОЙ ИНФОРМАЦИОННОЙ СРЕДЫ В УЗБЕКИСТАНЕ И ЕЕ РОЛЬ В МЕЖДУНАРОДНЫХ ПОКАЗАТЕЛЯХ

#### АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется влияние расширения информационного пространства, развития средств массовой информации и цифровых платформ в Узбекистане на формирование общественного мнения и создание среды достоверной информации. Исследование основано на теории Agenda-setting и концепции медиаплюрализма, которые позволяют раскрыть роль СМИ в современном обществе. Кроме того, проведён сравнительный анализ состояния медиасреды и свободы прессы в Узбекистане на основе международных рейтингов RSF и Freedom House. Результаты исследования показывают, что наряду с ростом числа источников информации возрастают актуальность вопросов достоверности информации, медиаграмотности и противодействия дезинформации.

**Ключевые слова:** информационная среда, средства массовой информации, общественное мнение, медиаграмотность, медиаплюрализм, Agenda-setting, достоверность информации, дезинформация.

**Ruyiddinova Aisha,**

Doctoral Researcher of the Academy of Public Policy  
and Management under the President  
of the Republic of Uzbekistan

## THE STATE OF THE RELIABLE INFORMATION ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN AND ITS ROLE IN INTERNATIONAL INDICATORS

### ABSTRACT

This article examines the impact of the expansion of the information environment, the development of mass media, and digital platforms in Uzbekistan on public opinion formation and the establishment of a reliable information environment. The study is based on the Agenda-Setting Theory and the concept of media pluralism, which explain the role of media in contemporary society. In addition, a comparative analysis of Uzbekistan's media environment and press freedom is conducted using RSF and Freedom House international rankings. The findings indicate that alongside the increasing number of information sources, issues related to information reliability, media literacy, and combating disinformation are becoming increasingly important.

**Keywords:** information environment, mass media, public opinion, media literacy, media pluralism, agenda-setting, information reliability, disinformation.

### KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekistonda raqamli texnologiyalar va internet infratuzilmasining rivojlanishi natijasida ommaviy axborot vositalari (OAV) soni va ularning turlari sezilarli darajada kengaydi. Bu jarayon axborot ishlab chiqarish va tarqatish tizimida ko'p qatlamli va raqobatli muhit shakllanishiga olib keldi. Zamonaviy sharoitda ommaviy aloqa jamiyatda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, Internet va uning tobora ko'payib borayotgan ijtimoiy tarmoqlari, uyali telefon aloqasining cheksiz ko'p odamlarga turli xil ma'lumotlarni yetkazishi, undan shaxsiy masalalarda foydalanish imkonini beradi [1].

Shu bilan birga, Internet aloqasi matn, ovoz, tasvir, videoni uzatish imkonini beradi, Shu bilan birga, axborot oqimining kengayishi axborot ishonchliligi, dezinformatsiya va media savodxonlik kabi muammolarni ham dolzarb masalaga aylantirdi. Ideal axborot muhiti shakllanishini istagan media jamoa bir vaqtning o'zida javobgarlik muvozanatini ham ta'minlay olishi lozim. Shu bilan birga tarqatilayotgan materiallar faqat axborot olish uchun emas, fuqarolarni media savodxonligini o'sishiga, tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatishi kerak. OAV sonini ortishi axborotni ishonchliligi to'liq ta'minlamasada, uni ishonchlilik darajasini oshirishi mumkin.

Chunki, bir manba ma'lumotni noto'g'ri tarqatsa boshqalari uni tekshirib tuzatishi imkoni bo'ladi. Ushbu tadqiqot bir nechta klassik va zamonaviy media nazariyalariga asoslanadi. Ular axborot muhitining shakllanishi, ommaviy axborot vositalarining jamiyatga ta'siri hamda jamoatchilik fikrining shakllanish mexanizmlarini tushuntirishga xizmat qiladi. Agenda-setting nazariyasiga ko'ra, OAV jamiyatda qaysi masalalar muhim deb qabul qilinishini bevosita belgilamaydi, biroq qaysi mavzular haqida ko'proq gapirilishini shakllantiradi. Bu nazariya O'zbekistondagi axborot muhitini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega, chunki raqamli platformalarda ayrim mavzularning ustunligi jamoatchilik e'tiborini yo'naltiradi.

Media pluralizm konsepsiyasi axborot manbalarining xilma-xilligi demokratik jamiyatning muhim sharti ekanligini ta'kidlaydi. O'zbekistonda OAV sonining oshishi ushbu konsepsiyaning formal jihatdan rivojlanayotganini ko'rsatsa-da, real pluralizm darajasi auditoriya taqsimoti va kontent sifati bilan belgilanadi.

### METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda O'zbekistonda ishonchli axborot muhitining holati va uning xalqaro reytinglardagi o'rni komparativ (qiyosiy) va analitik yondashuv asosida o'rganildi.

Tadqiqot davomida quyidagi usullar qo'llanildi:

Komparativ tahlil usuli – O'zbekistonning media erkinligi va axborot muhiti ko'rsatkichlari Markaziy Osiyo davlatlari hamda xalqaro reytinglar bilan solishtirildi.

Statistik tahlil usuli – OAV soni, internet foydalanuvchilari va reyting ballari kabi miqdoriy ko'rsatkichlar tahlil qilindi.

Kontent tahlili (content analysis) – RSF (Reporters Without Borders) va Freedom House hisobotlaridagi asosiy fikrlar va baholash mezonlari o'rganildi.

Indekslar tahlili – RSF World Press Freedom Index va Freedom House Freedom in the World reytinglari asosiy empirik manba sifatida tanlandi.

Tadqiqotda ikkilamchi ma'lumotlar (secondary data) ishlatildi, ya'ni rasmiy hisobotlar, xalqaro tashkilotlar statistikasi va ilmiy adabiyotlar asos qilib olindi. Bu yondashuv mavzuni makro darajada tahlil qilish imkonini berdi.

### **ASOSIY QISM**

Biz yashayotgan davr axborot asri deb yuritilishi sir emas, gazeta, jurnal, radio, televidenie kabi media tarmoqlari oldiga raqamli platformalarning qo'shilishi axborot asrining yangi bosqichiga sabab bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Endi ma'lumot olish uchun qaysidir paytni kutish, joyni tanlash shart emas, Zamon va makon tanlamas internetning ta'sirida axborot ishlab chiqish, uni qayta ishlash va tarqatish osonlashdi. Manbalar ko'paydi, xilma xillik ortdi. Endi dunyoning bir chekkasida qanday ijtimoiy-siyosiy voqelik sodir bo'layotganini bilish, xabar yuborish va xabar olish imkoni bor. Har bir yaxshi narsani boshqa bir kamchiligi bo'lgani kabi, axborotning hajmi va ko'lamining kengayishi, noto'g'ri xabar tarqalishiga, u orqali beqarorlik kuchayishiga va albatta boshqarilishga olib kelishi mumkin. Axborot orqali insonni boshqarish bir qarashda tushunarsizdek tuyiladi ammo bu haqiqat.

Aslida insonlar fikrlarini qaysidir axborot ta'sirida o'zgartiradi lekin, bu o'zlariga sezilmaydi. Hozirgi kunda raqamli platformalar keng tarqalganini hisobga olsak, quyidagicha misol keltirish mumkin. Platformalar algoritmida ha shunday tizim bor. Qiziqqan axborotingizga oid manbalar sizga ko'proq taklif qilinadi. OAV lari esa jamoatchilikka nima haqida o'ylash kerakligini emas, balki nima haqida o'ylash muhimligini belgilab beradi. Faqat bir biriga o'xshash bo'lgan, uzluksiz namoyis qilinadigan mavzular sizga muhimdek tuyilaveradi. Bu holat fanda Agenda-setting nazariyasi deb nomlanadi. "Ommaviy axborot vositalari bizga nima deb fikr qilishni emas, balki nima haqida fikr yuritishni belgilab beradi" [2].

Bugun OAV orqali tinimsiz namoyish etilayotgan mahsulotlar ko'p hollarda maishiy va ko'ngilochar bo'lganligi sababli, jamiyatdagi aksar insonlar shu kabi muammolar bilan band. Ilmiy, fan va texnikaga oid materiallar, kashfiyotlar qolib "Qaynona-kelin", "Oilaviy muammolar", kabilardan to'laqonli uzilganimizcha yo'q. Bu masalada ayrim TV va xususiy blogerlarga savollar berilganda talabga ko'ra taklif deya javob berishmoqda. Bu holat esa muammoning muhimligi va bo'yicha aniq strategic yondashuvning yetishmasligini ko'rsatmoqda.

E.Giddens sotsiologiya asarida shunday yozadi, "Televideniye madaniy muhit sifatidagi ta'sirini faqat unda namoyish etilayotgan dasturlar doirasida baholab bo'lmaydi. Televideniye zamonaviy jamiyatdagi inson axborotni qanday qabul qilishi, talqin qilishi va tartibga solishini belgilovchi umumiy madaniy dunyoqarash hamda idrok asoslarini shakllantirishga yordam beradi. Bugungi kunda bilvosita kommunikatsiya shakllarining ortib borishi sharoitida televideniye kitoblar, jurnallar va gazetalar kabi muhim ahamiyatga ega. U ijtimoiy dunyoni talqin qilish usullarini shakllantirib, insonning u bilan muloqot qilish jarayonida orttirgan tajribasini tartibga solishga ko'maklashadi" [3]. Giddnes ta'kidlaganidek, TV lar umumiy madaniy dunyoqarashni shakllantirishga yordam beruvchi resurs hisoblanadi. Undan tarqatilayotgan materiallar esa iste'molchini idrokini rivojlanishiga yoki tor doirada rivojlanmay qolishiga ham ta'sir qiladi.

Bu jarayonda nafqat uzatilayotgan xabar bakli tasvirda ko'rsatilayotgan turli ramzlar ham ijtimoiy xulq-atvorga ta'sir ko'rsatishi mumkinligi aytilgan. Giddnes "ko'plab tijoriy reklamalarda sotilayotgan mahsulotning o'zidan ko'ra, erkak va ayol o'rtasidagi farqlar ramziy tarzda tasvirlanadi.

Ko'plab roliklarda erkaklar intellektual va jismoniy jihatdan faol insonlar sifatida ko'rsatilsa, ayollar esa odatda xayol surib, uzoqqa termulib turgan holda tasvirlanadi" deb yozadi [4]. Bunday holatlar nafaqat reklama roliklari balki ayrim kino va filmlarda ham kuzatiladi. Demak, bu axborot uzatilayotgan jarayonda mazmun bilan birga har bir tasvir ham ahamiyatga loyiq ekanligini ko'rsatadi.

Giddnes bundan 26 yil avval o'zining sotsiologiya asarida "agar bugungi tendensiyalar saqlanib qolsa, hozir tug'ilyotgan har bir bola o'n sakkiz yoshga yetguniga qadar uyqudan tashqari har qanday boshqa mashg'ulotga qaraganda ko'proq vaqtini televizor qarshisida o'tkazadi. Hozirgi kunda deyarli har bir oilada televizor mavjud", deb yogan edi. Hozir esa bu fikrlariga qo'shimcha qilib, uyqudan tashqari har qanday boshqa mashg'ulotga qaraganda ko'proq vaqtini telefon va kompyuterlar qarshisida o'tkazmoqda deb o'zgartirsak xat6 bo'lmasdi. Giddnes o Bundan qariyb 30 yil avval, Buyuk Britaniyaning o'rtacha katta yoshli fuqaro kuniga taxminan 3 soat televizor tomosha qilganini keltiradi, hozir ushbu raqamlar biroz ortgan va televizor telefonga almashgan.

**OAV rivojlanishi va axborot makonining kengayishi.** Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda bugungi kunda qariyb 2 400 ta ommaviy axborot vositasi faoliyat yuritmoqda, ularning 65 foizdan ortig'i nodavlat sektorga tegishlidir. Shuningdek, foydalanuvchilar soni sezilarli oshib, internet auditoriyasi 14,7 milliondan 32,7 millionga yetgan [5]. Bu holat axborot ishlab chiqarish manbalarining diversifikatsiyalashuvini anglatadi. Natijada xususiy media, blogerlar va raqamli platformalar jamoatchilik fikrini shakllantirishda tobora muhim rol o'ynamoqda. Biroq axborot manbalarining ko'payishi avtomatik ravishda uning sifati oshishini kafolatlamaydi.

Axborot makonining kengayishi bilan birga dezinformatsiya, misinformatsiya va feyk xabarlar tarqalish darajasi ham ortib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri – kontent ishlab chiqarish jarayonining markazlashmaganligi va yagona professional standartlarning yetarli darajada shakllanmaganligidir. Shuningdek, aholining media savodxonlik darajasi ham bir xil emas. Bu esa ayrim holatlarda yolg'on yoki tekshirilmagan axborotlarning keng tarqalishiga, hatto moliyaviy firibgarlik holatlariga olib kelmoqda. Shu sababli axborot iste'moli jarayonida "media gigiyena" muhim omil sifatida yuzaga chiqmoqda.

**Xalqaro reytinglarda O'zbekiston o'rni.** RSF indeksi. Reporters Without Borders tomonidan e'lon qilinadigan World Press Freedom Index ma'lumotiga ko'ra, O'zbekiston 2025-yilgi reytingda 180 davlat orasida 147-o'rinni egallagan. Bu ko'rsatkich mamlakatda matbuot erkinligi "jiddiy cheklovlar mavjud" toifasida ekanini bildiradi [6].

Markaziy Osiyo davlatlari bilan solishtirganda quyidagi holat kuzatiladi:

Qirg'iziston – 146-o'rin

O'zbekiston – 147-o'rin


Qozog'iston – 149-o'rin

Tojikiston – 155- o'rin

Turkmaniston – 173- o'rin

Bu taqqoslash mintaqada media erkinligi darajasi turlicha ekanini ko'rsatadi. Freedom House 2025-yilgi hisobotida O'zbekistonni "Not Free" (erkin emas) toifasiga kiritgan (1-rasm). Mamlakat umumiy 100 ballik tizimda 12 ball olgan bo'lib, siyosiy huquqlar bo'yicha 2/40, fuqarolik erkinliklari bo'yicha esa 10/60 ball qayd etilgan [7].

Hisobotda sud tizimi va OAV ustidan ijro hokimiyatining kuchli ta'siri, shuningdek, fuqarolik faollari va jurnalistlarga bosim holatlari mavjudligi ta'kidlangan. Bu natijalarga javob tariqasida mamlakatimizda bu masala ochiligicha qolyapti deb ayta olmaymiz. Albatta bu masala Davlatimiz rahbarining e'tiboridan chetda emasligini quyidagi misol bilan ochiqdash mumkin. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev 2022-yili 27-iyun "Matbuot va ommaviy axborot xodimlari kuni munosabati bilan yo'llagan tabrigida ular faoliyatiga to'sqinliklar demokratik islohotlarga qarshi harakat sifatida baholanishi kerakligini ta'kidladi. «Sud va prokuratura organlari bizga mutlaqo yarashmaydigan bunday salbiy holatlar bo'yicha qat'iy choralar ko'rishi lozim» [8]. Davlat rahbarining o'zi qarshi bo'layotgan bu kabi vaziyatda jamoatchilik ham faollik ko'rsatishi talab etiladi.



### 1-rasm. Freedom House 2025-yilgi hisobotida O‘zbekistonni “Not Free” (erkin emas) toifasiga kiritganligi

O‘zbekistonda axborot makonining kengayishi demokratik kommunikatsiya imkoniyatlarini oshirgan bo‘lsa-da, xalqaro indekslar mamlakatda media erkinligi va axborot ishonchligi bo‘yicha tizimli muammolar mavjudligini ko‘rsatadi.

Bu holat quyidagi omillar bilan bog‘liq:

media institutlarining institutsional mustaqilligi yetarli emasligi;

axborot bozorida markazlashmagan, lekin tartibga solinmagan kontent oqimining ko‘payishi;

media savodxonlikning past darajasi;

Natijada axborot ko‘pligi bilan birga uning ishonchligini baholash murakkablashmoqda.

Zamonaviy jamiyatda ommaviy kommunikatsiya muhim rol o‘ynaydi. Hozirda barcha davlatlarda OAV “to‘rtinchi hokimiyat” sifatidagi nufuzi, roli ortib bormoqda. Bu uning jamoatchilik fikrini shakllantirishga ta‘siri bilan bog‘liq. Dunyo va barcha hududlar bo‘yicha yetkazilayotgan kundalik yangiliklar – dolzarb fakti ifodalovchi, jamoatchilik qiziqishini uyg‘otadigan va keng auditoriyani o‘zida qamrab olgan ijtimoiy kommunikatsiyadir [9].

Hozirgi, globallashuv sharoitida, mamlakatimizga qilinayotgan axborot hurujlari “demokratiya, erkinlik va farovonlikni ilgari surish” niqobi ostida turli geosiyosiy manfaatlarni ham o‘zida mujassamlashtirgan. Bunday hurujlar esa turli xalqaro jamg‘armalar, axborot vositalari (ayniqsa, internet) kabi usullar orqali amalga oshirilmoqda. Ularning oldi olinmasa, ularga qarshi kurashilmasa, oxir-oqibat, ularning ta‘sirida odamlarning turmushi, yashash tarzi butunlay o‘zgarib ketishi mumkin.

Axborot hurujining shaxs, oila, tashkilot, mahalla va jamiyatga ta‘siri dastlab unchalik ko‘zga tashlanmasligi mumkin. Chunki ijobiy va salbiy mazmundagi axborotlarni hamma ham tezda

farqlay olmaydi. Salbiy mazmundagi yot g‘oyalarni o‘zida mujassamlashtirgan axborotlar muayyan kishilar ongiga singib qolgandan so‘ng esa, ularni "o‘chirib" tashlash oson kechmaydi [10].

### XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda raqamli texnologiyalar va internet infratuzilmasining rivojlanishi natijasida axborot makoni sezilarli darajada kengaydi, ommaviy axborot vositalari soni ortdi va axborot olish imkoniyatlari yanada qulaylashdi. Xususi media, bloggerlar hamda raqamli platformalarning faol ishtiroki axborot manbalarining xilma-xilligini ta‘minlab, jamoatchilik fikrini shakllantirish jarayoniga yangi imkoniyatlar olib kirdi.

Biroq axborot manbalari sonining ko‘payishi axborotning ishonchligi avtomatik ravishda oshishini anglatmaydi. Aksincha, dezinformatsiya, misinformatsiya va feyk xabarlar tarqalishining kuchayishi axborot makonida yangi xavf va tahdidlarni yuzaga keltirmoqda. Shu sababli axborotning

ishonchliligini ta'minlash, media savodxonlikni rivojlantirish va axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Tadqiqotda tahlil qilingan Agenda-setting nazariyasi va media pluralizm konsepsiyasi OAVning jamoatchilik fikriga ta'sirini tushuntirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qildi. OAV va raqamli platformalar fuqarolarga nima haqida o'ylash kerakligini emas, balki qaysi masalalar muhim ekanligini ko'rsatish orqali kun tartibini shakllantirishi aniqlandi. Shu bilan birga, media pluralizmi axborot manbalari xilma-xilligini ta'minlansa-da, uning samaradorligi kontent sifati, professional standartlar va auditoriyaning tanqidiy fikrlash darajasiga bog'liq ekanligi kuzatildi.

Xalqaro reytinglar tahlili O'zbekistonda media erkinligi va axborot muhiti borasida ijobiy o'zgarishlar bilan bir qatorda tizimli muammolar ham mavjudligini ko'rsatdi. Xususan, media institutlarining mustaqilligi, jurnalistlar faoliyati uchun erkin muhit yaratish, axborot ochiqligi va fuqarolarning axborot olish huquqini yanada keng ta'minlash zarurati saqlanib qolmoqda.

Shu munosabat bilan ishonchli axborot muhitini shakllantirish uchun quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- media savodxonlikni ta'lim tizimining barcha bosqichlarida rivojlantirish;
- OAV va davlat institutlari o'rtasida ochiq va samarali kommunikatsiyani kuchaytirish;
- jurnalistlar hamda kontent yaratuvchilarning professional mas'uliyatini oshirish;
- faktcheking va axborotni verifikatsiya qilish mexanizmlarini rivojlantirish;
- fuqarolarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini mustahkamlash;
- media institutlarining institutsional mustaqilligini kuchaytirish.

“Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak”, [11] degan tamoyil davlat boshqaruvi tizimini inson manfaatlariga yo'naltirish, davlat organlari faoliyatining ochiqligi va hisobdorligini ta'minlashning konseptual asosi hisoblanadi. Mazkur yondashuv jamoatchilik nazorati institutlarini rivojlantirish, davlat va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni mustahkamlash hamda boshqaruv qarorlarining ijtimoiy samaradorligini oshirish uchun muhim nazariy va amaliy poydevor vazifasini bajaradi. Jamoatchilik nazoratining ta'sirchanligi davlat organlarining aholi oldidagi mas'uliyati va hisobdorligini kuchaytirish orqali davlat boshqaruvi shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, ishonchli axborot muhitini shakllantirish faqat davlat yoki OAVning vazifasi emas, balki fuqarolik jamiyati institutlari, ta'lim tizimi, media hamjamiyat va har bir axborot iste'molchisi ishtirokini talab qiladigan kompleks jarayondir. Aynan shunday hamkorlik va institutsional mexanizmlar orqali jamiyatda ishonchli axborotlar negizida sog'lom jamoatchilik fikrini shakllantirish mumkin bo'ladi.

### Adabiyotlar/Literatura/ References:

1. Баркович А.А. Интернет-дискурс: Компьютерно-опосредованная коммуникация: – М.: Флинта: Наука, 2017. – 285
2. McCombs M. E., Shaw D.L. The agenda-setting function of mass media // Public Opinion Quarterly. – 1972. – Vol. 36, No. 2. – P.176–187. DOI: 10.1086/267990.
3. Гидденс Э. Социология. – М.: Эдиториал УРСС, 1999. – С. 419.
4. Гидденс Э. Социология. – М.: Эдиториал УРСС, 1999. – С. 419.
5. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/06/27/oav-tabrik/>
6. [https://yep.uz/en/2026/05/uzbekistan-147-2026-world-press-freedom-index/?utm\\_source=chatgpt.com](https://yep.uz/en/2026/05/uzbekistan-147-2026-world-press-freedom-index/?utm_source=chatgpt.com)
7. [https://freedomhouse.org/country/uzbekistan/freedom-world/2025?utm\\_source=chatgpt.com](https://freedomhouse.org/country/uzbekistan/freedom-world/2025?utm_source=chatgpt.com)
8. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/06/27/congratulation/>
9. Морозов, А.В. Технологии эффективной коммуникации: Волох. – Минск., 2018. – 62 б.

10. Yunusov K.A. Umumiy sotsiologiya. – Toshkent: [Innovatsiya ziyo], 2025. – B. 381.
11. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 104 б.

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000